

INFLYATSIYANING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA

TA`SIRI.

Komilova Mukarram Qobiljonovna

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti

katta o'qituvchisi

komilova.mukarram29@gmail.com

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti

Servis fakulteti, Logistika yo`nalishi, 324-guruh

talabasi **Yeshmuratova Gulsevar Zokir qizi**

Annotatsiya Ushbu maqolada Inflyatsiyaning iqtisodiyotga ta'siri, uning sabablari va oqibatlari tahlil qilinadi. Inflyatsiyaning turli shakllari va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri atroflicha o'rganilib, narxlar barqarorligini ta'minlash uchun qo'llaniladigan asosiy choralar ko'rib chiqiladi. Maqolada Inflyatsiyaga qarshi kurashish yo'llari, jumladan, pul-kredit va fiskal siyosatning ahamiyati hamda samarali boshqaruv usullari haqida fikr yuritiladi. Inflyatsiyaning salbiy oqibatlarini kamaytirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning dolzarbligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Inflyatsiya, iqtisodiy barqarorlik, narxlar darajasi, pul-kredit siyosati, fiskal siyosat, iqtisodiy o'sish, inflyatsiyaga qarshi kurash.

Annotation This article analyzes the impact of inflation on the economy, its causes, and consequences. The various forms of inflation and their effect on economic development are thoroughly examined, and the main measures used to ensure price stability are discussed. The article also explores ways to combat inflation, including the importance of monetary-credit and fiscal policies, as well as effective governance methods. The relevance of achieving stable economic growth by reducing the negative consequences of inflation is emphasized.

Keywords: inflation, economic stability, price level, monetary policy, fiscal policy, economic growth, combating inflation.

Аннотация В данной статье анализируется влияние инфляции на экономику, ее причины и последствия. Рассматриваются различные формы

инфляции и их воздействие на экономическое развитие, а также основные меры, применяемые для обеспечения стабильности цен. В статье также обсуждаются пути борьбы с инфляцией, включая важность денежно-кредитной и фискальной политики, а также эффективные методы управления. Подчеркивается актуальность достижения стабильного экономического роста путем снижения негативных последствий инфляции.

Ключевые слова: инфляция, экономическая стабильность, уровень цен, денежно-кредитная политика, фискальная политика, экономический рост, борьба с инфляцией.

Kirish qismi

Bugungi global iqtisodiyotda Inflyatsiya – har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biridir. Narxlarining barqarorligi aholi turmush darajasi va milliy iqtisodiy siyosatning samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri bo'lib, inflyatsiyaning oshishi ko'plab iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

So'nggi yillarda dunyo bo'ylab inflyatsiyaning oshib borishi, xususan, oziq-ovqat va energiya narxlarining tez sur'atlarda ko'tarilishi ko'plab mamlakatlarning iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston iqtisodiyoti ham bundan mustasno emas. Shu sababli, Inflyatsiyaning sabablari va uning iqtisodiyotga ta'sirini o'rganish hamda samarali yechimlarni izlash dolzarb masalaga aylandi.

Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda dunyo bo'ylab Inflyatsiya darajasi sezilarli darajada oshdi. O'zbekistonda esa 2023-yil yakunida inflyatsiya darajasi 8,77 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun Inflyatsiyani samarali boshqarish zarurligini ko'rsatadi.

Asosiy qism

Inflyatsiya – bu umumiy narxlar darajasining doimiy o'sishi bo'lib, u iqtisodiy o'sishning muvozanatli rivojlanishiga tahdid solishi mumkin. Pul qiymatining

pasayishi va iste'mol xarajatlarining ortishi natijasida inflyatsiya aholining xarid qobiliyatini kamaytiradi va iqtisodiy faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek Inflyatsiya – bu mamlakat iqtisodiyotida umumiy narxlar darajasining doimiy o'sishi va pul birliklarining sotib olish qobiliyatining pasayishi jarayonidir. Oddiy qilib aytganda, inflyatsiya tufayli bugun sotib olinadigan mahsulot yoki xizmatlar kelajakda qimmatroq bo'lishi mumkin.

Inflyatsiya iqtisodiy jarayonlarning tabiiy qismi bo'lib, u turli omillar ta'sirida yuzaga keladi. Ushbu jarayon iqtisodiyotning turli jabhalariga ta'sir etadi: aholining real daromadlari kamayadi, ishlab chiqarish tannarxi oshadi va moliyaviy bozorlarda beqarorlik yuzaga kelishi mumkin. Inflyatsiyaning asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi;

- *Pul massasining oshishi – Markaziy bank tomonidan iqtisodiyotga ortiqcha miqdorda pul chiqarilishi.*
- *Talab inflyatsiyasi – Bozordagi talabning taklifdan yuqori bo'lishi natijasida narxlarning oshishi.*
- *Tovar va xizmatlar tannarxining oshishi – Ishlab chiqarish resurslari narxining ko'tarilishi natijasida mahsulotlar narxining oshishi.*
- *Import inflyatsiyasi – Valyuta kursining pasayishi yoki import qilinadigan mahsulotlarning qimmatlashishi natijasida ichki bozorda narxlarning oshishi.*

Umuman olganda, inflyatsiya iqtisodiy rivojlanishga turlicha ta'sir ko'rsatadi.. Me'yoriy darajadagi inflyatsiya iqtisodiy o'sish uchun foydali bo'lishi mumkin, chunki u ishlab chiqarish va investitsiyalarni rag'batlantiradi. Biroq, yuqori inflyatsiya aholi farovonligining pasayishiga va iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Demak Inflyatsiya – bu iqtisodiy tizimning ajralmas qismi bo'lib, uni to'g'ri boshqarish davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Samarali pul-kredit va fiskal siyosat orqali inflyatsiyani jilovlash iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Inflyatsiya pul qadrsizlanishini bildiradi. Inflyatsiya har yili rivojlangan davlatlarda o'rtacha 7 % tashkil etadi. Barcha iqtisodiy aloqalar inflyatsiyani

hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Inflyatsiya (lot. inflatio — shishish, boʻrtish, koʻtarilish), pulning qadrsizlanishi — tovar-pul muvozanatining buzilishi natijasida muomalada xoʻjalik aylanmasi ehtiyojlaridan ortiq darajada qogʻoz pullar miqdorining koʻpayib ketishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan taʼminlanmagan pullarning paydo boʻlishi. I. birinchi galda sifati yaxshilanmagan holda tovarlar va xizmatlar narxining koʻtarilishi koʻrinishida, shuningdek, oltin va chet el valyutasining milliy valyutaga nisbatan qimmatlashishi shaklida yuz beradi. Tovar ishlab chiqarishning toʻlov qobiliyatiga ega talab oʻsishidan ortda qolishi, bozorda talabga javob bermaydigan tovarlarning koʻpayib ketishi, byudjet kamomadlarini qoplash uchun qoʻshimcha pul emissiyasi, investitsiyalarni emissiya hisobidan moliyalashtirish, monopol narxning mavjudligi, narxni oshib ketishidan hadiksirab tovarlarni keragidan ortiq xarid etish, mamlakatga qadrsizlangan chet el valyutasining koʻplab kirib kelishi va boshqa omillar Inflyatsiyani yuzaga keltiradi. Jarayoni narxlarning oʻsishi, yalpi talabning yalpi taklifdan oshib ketishi, makroiqtisodiy beqarorlik natijasidir. "Inflyatsiya" termini dastlab 1861—1865-yillarda Shimoliy Amerikada, soʻngra Fransiya va Germaniyada qoʻllangan. Tovarpul muvozanatiga koʻra, pul massasi (M) pul miqdori (t)ning pul oboroti tezligi (V)ga koʻpaytmasi boʻlib, bu tovar massasi (T)ga, yaʼni bir tovar narxining (R) tovarlar miqdori (Q)ga koʻpaytmasiga teng boʻlishi kerak. Bunda $M=T$ yoki $mV=PQ$ tengligi hosil boʻladi. Agar pul koʻpayib ketsa $M>T$, yaʼni pulning bir qismi ortiqcha boʻladi. Agar pul miqdori oʻzgarmaganda tovar miqdori qisqarib ketsa $T<M$ paydo boʻladi. Har ikki holda ham ortiqcha pul narxlarning oʻsishini keltirib chiqaradi, chunki narx tovar birligiga beriladigan pul miqdoridir. Inflyatsiya bu faqat pul bilan bogʻliq hodisa emas, balki iqtisodiyot yuksalganda qisqaradigan, tushkunlik paytida kuchayadigan iqtisodiy holat mahsuli.

Inflyatsiya har qanday iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi boʻlib, u iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishga taʼsir koʻrsatadigan asosiy omillardan biridir. Inflyatsiyaning ijobiy va salbiy taʼsirlari mavjud boʻlib, ularning natijasi inflyatsiya darajasining qanchalik nazorat qilinishiga bogʻliq.

1. Inflyatsiyaning ijobiy ahamiyati

- Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish

Me'yoriy darajadagi inflyatsiya iqtisodiy o'sishning muhim omili bo'lishi mumkin. O'rtacha inflyatsiya darajasi ishlab chiqarish hajmining oshishiga va iqtisodiy faollikning kuchayishiga xizmat qiladi.

- Ishlab chiqarish va investitsiyalarni rag'batlantirish

O'rtacha inflyatsiya darajasi ishlab chiqaruvchi va tadbirkorlarni o'z bizneslarini rivojlantirishga undaydi. Narxlarning sekin-asta oshishi korxonalarni ko'proq ishlab chiqarish va investitsiya qilishga rag'batlantiradi.

- Davlat qarzlarini kamaytirish

Agar inflyatsiya nazorat ostida bo'lsa, davlat qarzining real qiymati pasayadi. Bu esa davlatga o'z qarz majburiyatlarini nisbatan osonroq to'lash imkonini beradi.

2. Inflyatsiyaning salbiy ta'siri

- Aholi turmush darajasining pasayishi

Inflyatsiya darajasining yuqori bo'lishi aholining real daromadlarini kamaytiradi. Chunki ish haqi va pensiyalar narxlarning tez o'sishi bilan teng ravishda oshmasligi mumkin.

- Moliyaviy beqarorlik va ishonchsizlik

Yuqori inflyatsiya bank tizimi va investitsiyalar uchun xavf tug'diradi. Valyuta qadrsizlanishi va narxlar barqarorligining yo'qolishi investorlarning ishonchini pasaytirishi mumkin.

- Iste'mol va jamg'armalarga ta'siri

Narxlarning tez o'sishi odamlarni ko'proq xarajat qilishga majbur qiladi, bu esa jamg'armalar hajmining kamayishiga olib keladi. Shu bilan birga, iqtisodiy barqarorlik yo'qolsa, odamlar uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Inflyatsiya iqtisodiy tizimlar uchun muhim jarayon bo'lib, u o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga bog'liq ravishda ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agar inflyatsiya nazorat ostida tursa, u iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi va

investitsiyalarni oshiradi. Biroq, haddan tashqari yuqori yoki beqaror inflyatsiya iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Shu sababli, davlat tomonidan inflyatsiyani samarali boshqarish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Inflyatsiya oqibatlari Inflyatsiya iqtisodiyotni vayron qilish darajasigacha ta'sir qilishi mumkin. Inflyatsiya sharoitida:

- Eng avvalo pul birligi qadrsizlanadi;
- Tovarlardagi narxlar mutanosibligi buziladi;
- Xaridor va sotuvchilar u yoki bu qarorni aniq qabul qilishga ikkilanadilar;
- Katta investitsiyalar qilish xavf-xatari oshadi;
- Tadbirkorlar qisqa muddatli qarorlar va harakatlar bilan cheklanib qolishadi;
- Shaxsiy jamg'armalar o'z qadrini yo'qotadi;
- Aktsiyalar, obligatsiyalar, cheklar, veksellar, sertifikatlar, sug'urta polislarining real qiymati pasayadi.
- Kam ta'minlangan aholi yanada qashshoqlashadi;
- Mehnat qilish va tadbirkorlikning rivojlanishiga karaganda ish haqi tezroqqadrsizlanadi.

Umuman olganda, , inflyatsiya bozor jarayonini tartibsizlantirib, ham ishlab chiqarishni, ham iste'molni izdan chiqaradi, aholining turmush darajasini keskin pasaytiradi, jamiyatda sotsial tanglikni vujudga keltiradi.

Oy	o'tgan oyga nisbatan (%)	o'tgan yilning shu oyiga nisbatan (%)
Yanvar 2025	0,7	9,9
Dekabr 2024	1,0	9,8
Noyabr 2024	0,9	10,0
Oktyabr 2024	0,8	10,2
Sentyabr 2024	1,2	10,5
Avgust 2024	0,5	10,5
Iyul 2024	0,3	10,5

Iyun 2024	0,2	10,6
May 2024	2,8	10,6
April 2024	0,9	8,1
Mart 2024	0,7	8,0
Fevral 2024	0,3	8,3
Yanvar 2024	0,6	8,6

(O`zbekistonda oxirgi yillarda oylar kesimidagi inflatsiya darajasi)

<https://cbu.uz/uz/monetary-policy/annual-inflation/indicators/>

Xulosa

Demak Inflyatsiya — bu narxlarning doimiy oshishi va pul birliklarining sotib olish qobiliyatining pasayishi jarayonidir. U iqtisodiy o'sishga ijobiy ham, salbiy ta'sirlar ko'rsatishi mumkin, lekin o'rtacha darajadagi inflyatsiya ko'plab iqtisodiy tizimlar uchun foydali bo'lishi mumkin. Inflyatsiyaning asosiy sabablari pul massasining oshishi, talab inflyatsiyasi, ishlab chiqarish tannarxining oshishi va import inflyatsiyasidir.

Inflyatsiyaning o'sishi iqtisodiy faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki narxlarning oshishi aholining xarid qobiliyatini kamaytiradi, ishlab chiqarish tannarxini oshiradi va bu natijada iqtisodiy barqarorlikni yo'qotish xavfi paydo bo'ladi. Shuningdek, inflyatsiya iqtisodiy tizimdagi resurslarning taqsimlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Pul qiymatining pasayishi sababli, uzoq muddatli investitsiyalar va jamg'armalar qisqarishi mumkin, chunki odamlar o'z pullarini narxlar oshishidan himoya qilishga harakat qiladilar.

Biroq, inflyatsiyaning o'rtacha darajasi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin. Inflyatsiya yuqori bo'lmasligi shart, lekin agar inflyatsiya o'rtacha bo'lsa, u ishlab chiqarishni va investitsiyalarni rag'batlantirishi mumkin. Narxlarning o'sishi ishlab chiqaruvchilarni ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga va investitsiya qilishga undaydi, bu esa iqtisodiy faollikni kuchaytiradi. Shuningdek, inflyatsiya

davlat qarzining real qiymatini kamaytiradi, bu esa davlatga qarz majburiyatlarini osonroq to'lash imkoniyatini yaratadi.

Inflyatsiya, asosan, iqtisodiy jarayonlarning muvozanatli rivojlanishini ta'minlashga tahdid soladigan bir omil sifatida ko'riladi, chunki yuqori inflyatsiya iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Aholi farovonligining pasayishi va iqtisodiy tizimda ishonchsizlik tuyg'usi hosil bo'lishi iqtisodiy o'sishni sustlashtirishi mumkin. Shu sababli, inflyatsiyaning o'sishini nazorat qilish uchun davlatlar samarali pul-kredit va fiskal siyosatlarni amalga oshirishi zarur.

Inflyatsiyaning ijobiy ta'sirlaridan foydalangan holda, iqtisodiy o'sish va rivojlanish uchun davlat iqtisodiy siyosatlarni muntazam ravishda qayta ko'rib chiqishi va inflyatsiyaning boshqarishning samarali usullarini izlab topishi kerak. Inflyatsiya darajasini nazorat qilish va inflyatsiyaning zararli ta'sirlarini kamaytirish orqali iqtisodiy barqarorlikni saqlash mumkin. Buning uchun, davlatlar o'z iqtisodiy siyosatlarida pul massasi, valyuta kurslari, ishlab chiqarish samaradorligi va eksport-import muvozanatini o'zaro uyg'unlashtirishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, inflyatsiya iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, uning boshqarilishi iqtisodiy barqarorlikni saqlashda katta ahamiyatga ega. Inflyatsiyaning o'rtacha darajasi iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarishning oshishiga xizmat qilishi mumkin, lekin inflyatsiya darajasining ortishi iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun, inflyatsiyaning nazorat qilish va uning salbiy ta'sirlarini kamaytirish uchun samarali iqtisodiy siyosatlar zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. B.Xudoyberdiyev . M.Yuldashev *"Inflyatsiyaning mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri va uni bartaraf etish chora-tadbirlari"*.[Cyberleninka](#)
- 2.A.Mamatov , S.Toshxojayev."*O'zbekistonda inflyatsiya muammosi va unga qarshi kurash*".[Zenodo](#)
- 3.O.Bekmirzaev , B.Mustafayev *"Mamlakatlar kesimida inflyatsiya darajasining iqtisodiy o'sishga ta'siri"*.[Cyberleninka](#)

4. Комилова М. К. и др. БЛОКЧЕЙН В БАНКОВСКОЙ СФЕРЕ: РИСКИ И ПРЕИМУЩЕСТВА //Научный информационный бюллетень. – 2025. – Т. 6. – №. 1. – С. 240-243.

5. Komilovakomilova M. K. Facilitating interactive language learning in groups with non-russian language of study //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2020. – Т. 12. – №. 6. – С. 1065-1068.

6.U.Rustamov , I.Rakhimov "*Inflyatsiyaning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirining tahlili va uni bartaraf etish yo'llari*".[API Scienceweb](#)

7.A.Jumaev , D.Turgunov "*Inflyatsiya, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari*".
[Ilmiybaza](#)

8. <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/annual-inflation/indicators/>